



UDK: 141.1:316.7:323/327(575.1)

Dilshod NORMURODOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: dilshod.normurodov@gmail.com

TITU dosenti, f.f.n A.Tashanov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF IDEAS ON CIVIL SOCIETY IN WESTERN MODERN PHILOSOPHY

Annotation

This article analyzes the development of ideas about civil society in Western philosophy of the Modern era, examining the views of thinkers such as J. Locke, C. Montesquieu, J.-J. Rousseau, N. Machiavelli, T. Hobbes, I. Kant, and G. Hegel. Furthermore, it explores the influence of their ideas on civil society on the later teachings of philosophers, including K. Marx, M. Weber, P. Sorokin, T. Parsons, A. Tocqueville, and others.

Key words: Modern era, Western philosophy, civil society, development of ideas, state, law, social contract, democracy, J. Locke, C. Montesquieu, J.-J. Rousseau, N. Machiavelli, T. Hobbes, I. Kant, G. Hegel.

РАЗВИТИЕ ИДЕЙ О ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ В ФИЛОСОФИИ НОВОГО ВРЕМЕНИ ЗАПАДА

Аннотация

В данной статье анализируется развитие идей о гражданском обществе в философии Нового времени Запада, рассматриваются взгляды таких мыслителей, как Дж. Локк, Ш. Монтескье, Ж.-Ж. Руссо, Н. Макиавелли, Т. Гоббс, И. Кант, Г. Гегель. Кроме того, исследуется влияние их идей о гражданском обществе на последующие учения философов, включая К. Маркса, М. Вебера, П. Сорокина, Т. Парсонса, А. Токвиля и других.

Ключевые слова: Новое время, западная философия, гражданское общество, развитие идей, государство, закон, общественный договор, демократия, Дж. Локк, Ш. Монтескье, Ж.-Ж. Руссо, Н. Макиавелли, Т. Гоббс, И. Кант, Г. Гегель.

YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA FUQAROLIK JAMIYATIGA DOIR G'OYALAR RIVOJI

Аннотация

Ushbu maqolada Yangi davr G'arb falsafasida fuqarolik jamiyatiga doir g'oyalar rivoji tahlil qilinib, J. Lокk, C. Monteskye, J.-J. Russo, N.Machiavelli, T.Gobb, I.Kant, V.Gegel kabi mutafakkirlarning fuqarolik jamiyatiga doir mulohazalari o'rganilgan. Shuningdek, bu davr mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqidagi g'oyalarining keyingi davr K.Marks, M.Veber, P.Sorokin, T.Parsons, A.Tokvil va boshqa faylasuflari ta'limotlariga ta'siri ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi davr, G'arb falsafasi, fuqarolik jamiyati, g'oyalar rivoji, davlat, qonun, ijtimoiy shartnoma, demokratiya, J. Lокk, C. Monteskye, J.-J. Russo, N.Machiavelli, T.Gobb, I.Kant, V.Gegel.

Kirish. Fuqarolik jamiyati – bu jamiyat a'zolarining davlatdan mustaqil ravishda o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tizimi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati nazariyasi tarixan shakllangan bo'lib, uning ilmiy asoslari Aristotel, Jan-Jak Russo, Jon Lокk, Gegel va Karl Marks kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan. Asosiy g'oya – jamiyat a'zolarining davlatga bog'liq bo'lmagan holda o'z faoliyatlarini amalga oshirishidir. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari sifatida qonun ustuvorligi – huquqiy davlat asosida fuqarolar o'z huquqlarini himoya qila olsa, ochiqlik va shaffoflik – davlat organlarining faoliyati jamoatchilik nazoratida bo'lishini ta'minlaydi. Ko'ppartiyaviylik va plyuralizm – turli siyosiy va ijtimoiy qarashlarning mavjudligi ko'rsatsa, nodavlat tashkilotlari – jamoat birlashmalari, mustaqil matbuot va tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati davlat bilan hamkorlik qilishi va uning cheklavlariga qarshi turishi mumkin. Mukammal fuqarolik jamiyati – bu demokratik institutlar orqali jamiyatning o'zini o'zi boshqarishidir. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun avtoritarizm, korrupsiya, qonun ustuvorligining zaifligi va jamoatchilik faolligining pastligi kabi omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik jamiyatiga e'tiborni o'z ma'ruzalarida quyidagicha ta'riflaydilar: “Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo'yicha vijdonan yashashga tayyor bo'lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg'a qadam bosmog'imiz kerak”[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dastlabki shakllanishidan boshlab fuqarolik jamiyati zamonadoshlari tomonidan katta e'tiborga sazovor bo'ldi. XVII-XVIII asrlarda A. Bergson, J.Lokk, Sh. Monteskyo, J. J. Russo, T. Xobbs va

boshqa mutafakkirlar, ularda zamonaviy fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari va uning birinchi ta'riflari berilgan. Fuqarolik jamiyati yevolyusiyasi bilan bir qatorda, u haqidagi ilmiy bilimlar ham rivojlandi va farqlandi. Yigirmanchi asrning oxirida fuqarolik jamiyati yevolyusiyasining yangi bosqichiga kirdi, bu post-kommunistik Sharqiy Yevropa va sobiq sovet hududida ijtimoiy faollikning sezilarli o'sishi, shuningdek Lotin Amerikasi mamlakatlarida demokratlashtirishning yangi to'loqini bilan tavsiflanadi. Fuqarolik jamiyati yana gapira boshladi, uning asosiy xususiyatlari dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bog'liq holda qayta tahlil qilindi, bu globalashuvning rivojlanayotgan jarayonlari bilan tavsiflanadi, bu yerda fuqarolik jamiyati yangi dunyo ijtimoiy tartibini shakllantirish jarayonida o'z o'rnini topishi kerak edi. Bu ko'plab olimlar tomonidan ilmiy aks yettirish mavzusiga aylandi, bu yesa fuqarolik jamiyatini o'rganishga yangi zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha ko'plab ishlarning paydo bo'lishiga turtki berdi

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy mahalliy va xorijiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyati va uni amalga oshirish omillari va mexanizmlari muammosining o'rganilish darajasini sarhisob qilsak, ushbu maqola mavzusi siyosiy fanlarda anchagina keng doirada tahlil qilingan. Ularni hal qilish uchun tadqiqot quyidagi usullardan foydalangan, jumladan: muammoli - xronologik – fuqarolik jamiyatini rivojdantirish, ushbu faoliyatning muayyan shakllari va usullarining paydo bo'lishining kelib chiqishini aniqlash qaratiladi. Qiyosiy-tarixiy uslub asosida fuqarolik jamiyati konsepsiyasining takomillashib borishi, ularga doir tushunchalarni aniqlashdagi qiyinchiliklarning ortib borishini ta'kidlash mumkin. Konkret-sotsiologik tadqiqotlar usuli esa shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida fuqarolik jamiyati konsepsiyasining namoyon bo'lishi, ular bilan aloqador tendensiyalar va o'zgarishlarni aniqlashni ko'zda tusa, mantiqiy

usul - mavjud hodisa va jarayonlar o'rtasida aniq munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Mavzu maqolada ushbu usullardan birgalikda foydalanish mavjud muammoni aniqroq va chuqurroq tekshirishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Tomas Gobbs siyosiy falsafa va davlat nazariyasi bo'yicha muhim g'oyalarni ilgari surgan. Uning asosiy asari "Leviafan" hisoblanadi, va bu kitobda u davlat, jamiyat va inson tabiati haqidagi fikrlarini bayon qiladi. Gobbsning fuqarolik jamiyatiga oid qarashlari ko'p jihatdan "tabiat holati", "ijtimoiy shartnoma" va "mustahkam davlat" konsepsiyalariga asoslanadi. Gobbsning fikricha, insonlar tabiatan o'z manfaatlarini o'ylaydigan, shaxsiy foydani ko'zlaydigan maxluqlardir. Agar hech qanday davlat va qonunlar bo'lmasa, jamiyatda "hammaning hammaga qarshi urushi" (bellum omnium contra omnes) yuzaga keladi. Bu holatda kuchlilar zaiflarni ezadi, mulk va hayot kafolatsiz qoladi hamda hech qanday taraqqiyot va tinchlik bo'lmaydi.

Bu holatni tasvirlash uchun Gobbs quyidagi iborani ishlatadi "Inson - insonga bo'ri" (Homo homini lupus est). Bu shuni anglatadiki, insonlar tabiatan bir-biriga tahdid soladi va o'z manfaatlari yo'lida bir-birini yo'q qilishga tayyor turadi. Mutafakkirning ijtimoiy shartnoma va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga doir qarashlari e'tiborga molik. Gobbsning fikricha, insonlar o'zlarini tabiat holatida xavfsiz his qilmaganlari uchun ijtimoiy shartnoma tuzishga majbur bo'ladilar. Ulgari surgan ijtimoiy shartnomaning mohiyati shundaki, har bir shaxs o'zining tabiiy huquqlarining bir qismidan voz kechadi. Bu huquqlar kuchli markazlashgan hokimiyatga (suverenga) topshiriladi. Davlat ("Leviafan") jamiyatni tartibga soladi va uni himoya qiladi.

Gobbsning tushunchasida fuqarolik jamiyati davlat paydo bo'lgandan keyingina shakllanadi. Davlatsiz fuqarolik jamiyati bo'lishi mumkin emas, chunki davlat qonunlarni qabul qiladi, jamoat tartibini ta'minlaydi va insonlar o'rtasidagi nizolarni hal qiladi. Mutafakkir mustahkam davlat - tinchlik va tartibning kafolati deb hisoblaydi. Gobbsning fuqarolik jamiyati to'g'risidagi qarashlarining asosiy nuqtasi shundaki, u kuchli va markazlashgan davlat hokimiyatini yoqlagan. Uning fikricha, suveren hokimiyat: qonunlar va tartib o'rnatadi; jamiyat a'zolarini himoya qiladi; urush va nizolarning oldini oladi.

Bu davrning yana bir mutafakkiri Jon Lokk - ingliz faylasufi va siyosiy fikrlar tarixidagi eng muhim shaxslardan biri bo'lib, u fuqarolik jamiyati, hokimiyat va inson huquqlari haqidagi g'oyalari bilan mashhur bo'lib, uning fikrlari demokratiya, huquqiy davlat va inson erkinliklari kabi tushunchalarga asos bo'lgan. Lokkning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari "Ikki traktat hukumat haqida" (1689) asarida bayon qilingan. Lokkning fikricha, fuqarolik jamiyati - bu insonlar tabiiy holatdan chiqib, qonun va huquqlar asosida tashkil topgan jamiyatdir. U Gobbsdan farqli ravishda, insonlar tabiatan yomon emas, balki erkin va teng deb hisoblagan[2].

Lokk fikricha, fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari sifatida huquqlar himoya qilinadi (hayot, erkinlik, mulk), hokimiyat fuqarolar roziligiga asoslangan bo'lishi kerak, qonun ustuvorligi ta'minlanishi kerak va insonlar davlatdan mustaqil ravishda hamkorlik qilishi mumkin. Lokk insonlar tabiat holatida ham erkin va teng huquqlidirlar, ammo bu holatda qonunlarni himoya qiluvchi markaziy tizim mavjud emas, deb hisoblaydi. Lokkning fikricha, insonlar ijtimoiy shartnoma orqali fuqarolik jamiyatiga o'tadilar. Bu shartnoma Gobbsnikidan farqli, chunki u mutlaq hokimiyatni emas, xalq suverenitetini va hukumatning cheklanganligini nazarda tutadi.

Lokkning ijtimoiy shartnoma nazariyasi bo'yicha insonlar tabiiy huquqlarini himoya qilish uchun davlatni tashkil etadi. Davlat fuqarolar roziligiga asoslangan bo'lishi kerak. Agar davlat inson huquqlarini buzsa, fuqarolar unga qarshi chiqishga haqlidir. Bu o'rinda fuqarolik jamiyati va davlat munosabatini tahlili ham e'tiborga molikdir. Fuqarolik jamiyati - davlatdan mustaqil jamoatchilik vakillarining uyushmalari va faoliyatlaridir.

Lokk davlat hokimiyatini cheklash zarurligini ta'kidlar ekan, qonun chiqaruvchi hokimiyat (parlament) - asosiy qonunlarni qabul qiladi va ijroiya hokimiyat (hukumat) - qonunlarni bajaradi. Bu qarashlar keyinchalik hokimiyatlar

bo'linishi nazariyasi (Monteskyo) va demokratiya tamoyillariga asos bo'lgan.

Lokkning qarashlariga ko'ra, fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplari bir necha jihatlarini o'zida aks ettirishi kerak. Bular hayot, erkinlik va mulk huquqi - insonlarning tabiiy huquqlari hukumat tomonidan himoya qilinishi kerak, hokimiyat xalq roziligiga asoslanishi kerak - agar hukumat xalq manfaatlariga zid harakat qilsa, xalq uni almashtirish huquqiga ega, qonun ustuvorligi - barcha fuqarolar va davlat amaldorlari qonunga bo'ysunishi kerak hamda fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil bo'lishi mumkin - odamlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun uyushmalar tashkil etishi mumkin.

Jon Lokk g'oyalarning zamonaviy ahamiyati shundaki, uning qarashlari liberalizm, huquqiy davlat, demokratiya va inson huquqlari tamoyillariga asos bo'lgan. Uning g'oyalari AQSH va Fransiya konstitutsiyalari hamda zamonaviy demokratiya modellari ta'sir qilgan. Bugungi kunda ham xalq hokimiyati, erkinliklar va qonun ustuvorligi kabi tushunchalar Lokkning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlariga tayanadi.

Bu davrning mashhur mutafakkirlaridan biri Sharl Lui de Monteskyo bo'lib, uning fuqarolik jamiyati haqidagi nazariya qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi. Sharl Lui de Sekonda, baron de La Bred va de Monteskyoning asosiy asari "Qonunlar ruhi haqida" hisoblanadi. U hokimiyatlar bo'linishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlari bilan mashhur bo'lgan. Monteskyo fuqarolik jamiyatini demokratik va huquqiy institutlar orqali tartibga solingan jamiyat deb hisoblagan. U davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini ilgari surgan[3].

Monteskyoning fuqarolik jamiyati haqidagi asosiy qarashlari sifatida fuqarolik jamiyati insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun mavjud bo'lishi, davlat fuqarolarning huquqlariga aralashmasligi va ularning erkin faoliyat yuritishiga imkoniyat berishi kerakligi, qonunlar barcha uchun teng va adolatli bo'lishi lozimligini aytish mumkin. Monteskyo fuqarolik jamiyatining to'g'ri ishlashi uchun davlat hokimiyati uchga bo'linishi kerak deb hisoblagan: Qonun chiqaruvchi hokimiyat (parlament) - qonunlarni qabul qiladi, Ijroiya hokimiyat (hukumat) - qonunlarni amalga oshiradi, Sud hokimiyati (sudlar) - qonunlar bajarilishini nazorat qiladi. Hokimiyatlar bir-birini nazorat qilishi kerak, aks holda diktatura yuzaga keladi. Bu g'oyalar zamonaviy demokratiya va huquqiy davlat tamoyillariga asos bo'ldi.

Jan Jak Russo - mashhur fransiyalik faylasuf, siyosiy mutafakkir va "ijtimoiy shartnoma" nazariyasining eng muhim vakillaridan biri bo'lib, uning fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlari asosan "Ijtimoiy shartnoma yoki siyosiy huquqlar prinsiplari" (1762) asarida bayon qilingan. Russo ozodlik, tenglik va xalq irodasiga asoslangan jamiyat qurish g'oyasini ilgari surgan. Uning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari Lokk va Monteskyodan farq qiladi.

Russo insonlarning tabiatdagi holatini erkin va teng, deb hisoblagan, ammo jamiyat rivojlangan sari, boylik va mulkchilik tengsizlikni keltirib chiqargan deb hisoblaydi. "Birinci bo'lib yerga tegishli tosh qo'rgan odam: 'Bu yer menga tegishli', deb aytdi va odamlar unga ishonadi. Ana shu inson jamiyatda tengsizlikni yaratgan birinchi shaxs edi." Russoga ko'ra, fuqarolik jamiyati insonlar tomonidan "ijtimoiy shartnoma" asosida yaratiladi. Bu shartnoma har bir shaxs o'z erkinligidan voz kechib, jamoaviy irodaga bo'ysunadi, hokimiyat xalqning umumiy irodasiga asoslanadi. Fuqarolar faqat o'z manfaatlarini emas, jamiyatning umumiy manfaatlarini ham himoya qilishi kerak. Boshqa faylasuflardan farqli ravishda, Russo hokimiyatning eng to'g'ri shakli bevosita demokratiya, deb hisoblaydi [4].

Russoing qarashlari bo'yicha Fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyatlari sifatida jamoaviy iroda ustuvorligi - jamiyat barcha fuqarolarning umumiy manfaatlarini asosida boshqarilishi kerak. Tenglik va adolat - tabiiy tenglik yo'qolmasligi uchun jamiyatda mulkiy va ijtimoiy adolat ta'minlanishi kerak. Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar - davlat xalq irodasini ifoda etish vositasi bo'lishi hamda fuqarolarning faol ishtiroki - har bir fuqaro jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi kerak.

Russoning g'oyalari Fransiyadagi Buyuk inqilobga kuchli ta'sir qildi. Fransuzlar "erkinlik, tenglik, birodarlik" shiori bilan mutlaq monarxiyaga qarshi chiqdilar. Russo Shveysariyada tug'ilgan va u yerdagi bevosita demokratiya g'oyalaridan ta'sirlangan. Hozirgi kunda ham Shveysariyada xalq referendumlari orqali davlat boshqaruvida faol ishtirok etadi. Mutafakkirning tenglik va jamoaviy boshqaruv haqidagi fikrlari sotsialistik va kommunistik g'oyalarga ham ta'sir qilgan.

Nemis idealist faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegelning fuqarolik jamiyati haqidagi fikrlari "Huquq falsafasi" (1820) asarida bayon qilingan. Gegel fuqarolik jamiyatini insonning shaxsiy manfaatlariga asoslangan, lekin davlat tomonidan tartibga solib turiladigan tizim, deb ta'riflaydi. Gegel fuqarolik jamiyatini "oila" va "davlat" orasidagi mustaqil tizim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson uchta asosiy bosqich orqali ijtimoiy taraqqiyotni bosib o'tadi:

- Oila – shaxs o'z shaxsiy manfaatlaridan voz kechib, oila manfaatlarini uchun yashaydi. Bu kollektiv hayotning boshlang'ich shakli.

- Fuqarolik jamiyati – shaxs erkin faoliyat yuritadigan, o'z manfaatlarini va ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat. Bu yerda shaxs o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy imkoniyatlaridan foydalanadi.

- Davlat – jamoaviy manfaatlarini tartibga soluvchi oliy kuch. Fuqarolik jamiyati o'z-o'zini boshqarishda yetarlicha samarali bo'lmagani uchun davlat aralashuvi zarur. Demak, Gegel nazarida fuqarolik jamiyati – shaxsiy manfaatlar va erkinliklarning maydoni, ammo u davlatsiz to'liq ishlay olmaydi.

Gegelning fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyati bir qator asosiy elementlardan tashkil topgan. Fuqarolik jamiyati iqtisodiy manfaatlar negizida shakllanadi. Insonlar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qiladi va bozor munosabatlariga kirishadi. Gegel huquqni fuqarolik jamiyatining bosh mezon, deb hisoblaydi. Har bir inson muayyan huquq va burchlarga ega, lekin bu huquqlar davlat tomonidan kafolatlanishi kerak. Fuqarolik jamiyatida turli tashkilotlar, kasaba uyushmalari va professional guruhlarning mavjud. Bu tuzilmalar insonlarning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Gegel fuqarolik jamiyatini anarxiya va tartibsizlikka moyil tizim, deb hisoblaydi. Shuning uchun davlat bu jamiyatni tartibga solishi, insonlarning yagona umumiy manfaatlarini ta'minlashi lozim.

G'arb falsafasida fuqarolik jamiyatiga oid g'oyalar va ularning mualliflari

Muallif	Asarlari	Fuqarolik jamiyati haqidagi g'oyalar	Xususiyatlari
Tomas Gobbs	Leviatan (1651)	Fuqarolik jamiyatini tabiiy holatdan chiqish sifatida ko'radi. Kuchli davlat (suveren) jamiyatni tartibga solishi kerak.	Absolyutistik davlatni qo'llab-quvvatlaydi. Inson tabiatan o'z manfaatini ko'zlovchi mavjudot.
Jon Lokk	Ikki risola (1690)	Fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi – fuqarolarning hayoti, erkinligi va mulkini himoya qilish. Davlat shartnomaga asoslangan bo'lishi kerak.	Liberalizm asoschisi. Fuqarolarning tabiiy huquqlarini himoya qilish muhim.
Sharl Lui Monteskye	Qonunlar ruhi haqida (1748)	Fuqarolik jamiyatining erkin va adolatli bo'lishi uchun hokimiyatlar bo'linishi zarur.	Uch hokimiyat bo'linishini ilgari surgan. Konstitutsiyaviy boshqaruv tarafdori.
Jan-Jak Russo	Ijtimoiy shartnoma (1762)	Fuqarolik jamiyati ijtimoiy shartnoma orqali shakllanadi. Suverenitet xalqga tegishli bo'lishi kerak.	Demokratik boshqaruvni ilgari suradi. "Umumiy iroda" tushunchasini ishlab chiqqan.
Georg Vilgelm Fridrix Gegel	Huquq falsafasi (1820)	Fuqarolik jamiyati davlat va oilaning o'rtasidagi o'ziga xos bosqichdir. U erkinlik va manfaatlarini muvozanatlashiradi.	Fuqarolik jamiyati davlat orqali barqarorlik topadi. Dialektik yondashuv tarafdori.
Karl Marks	Kapital, Nemis mafkurasi	Fuqarolik jamiyati – bu sinfiy kurash maydoni. Kapitalistik jamiyatda boylar manfaatlarini himoya qiladi.	Iqtisodiy tuzilma jamiyatni belgilaydi. Siftsiz jamiyat g'oyasini ilgari surgan.

Xulosa va takliflar. Tomas Gobbs fuqarolik jamiyatini mustahkam davlatsiz tasavvur qilmagan. Uning fikricha, insonlar tabiatan o'z manfaatlarini o'ylaydigan mavjudotlar bo'lgani uchun, ularni nazorat qilish uchun kuchli davlat kerak. Bu konsepsiya keyingi siyosiy falsafaga katta ta'sir ko'rsatgan;

Jon Lokk fuqarolik jamiyatini davlat va qonunlar himoyasidagi, huquq va erkinliklarga asoslangan tashkilotlashgan jamiyat, deb hisoblagan. Uning fikricha, davlat xalq roziligi bilan shakllanishi va insonlarning tabiiy huquqlarini himoya qilishi kerak. Bu g'oyalar zamonaviy demokratiya, huquqiy davlat va inson huquqlari konsepsiyalarining asosiga aylangan;

Jan Jak Russo fuqarolik jamiyatini xalqning umumiy irodasiga asoslangan, teng va erkin jamiyat sifatida tasvirlagan. U demokratiya va ijtimoiy tenglik g'oyalarini ilgari surgan. Uning

Gegelning fikrlari hozirgi kapitalistik tizimda muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati asosan iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liq va buni davlat tartibga solishi kerak. Bugungi demokratiyalarda davlat fuqarolar erkinligini cheklamadan, bir vaqtning o'zida ijtimoiy tartibni ta'minlaydi. Gegelning fikrlari hozirgi huquqiy davlat konsepsiyasining asoslaridan biri bo'lib, davlat insonlarning huquqlarini himoya qilishi va ularni tartibga solishi kerak. Gegel ta'kidlaganidek, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari va NNTlar hozirgi fuqarolik jamiyatida muhim rol o'ynaydi. G.V.Gegel ta'bir bilan aytganda, "fuqarolik jamiyatida har kim o'zi uchun — maqsad, qolgan hamma uning uchun hech kim emas. Ammo boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirishmasdan, u o'zining barcha maqsadlariga erisha olmaydi"[7.464].

Gegelning g'oyalari keyinchalik nemis faylasufi, iqtisodchisi va siyosiy nazariyachisi Karl Marks ta'limotiga ta'sir ko'rsatib, u fuqarolik jamiyatiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan yondashgan. Uning fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari asosan "Gegel huquq falsafasining tanqidi" (1843), "Iqtisodiy-falsafiy qompozitlar" (1844), "Kommunistik manifest" (1848) kabi asarlarida bayon qilingan. Marksning fikricha, fuqarolik jamiyati – kapitalistik munosabatlar va sinfiy tuzilmalar ta'sirida shakllangan ijtimoiy tizimdir[11].

Marks fuqarolik jamiyatini kapitalistik iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllangan ijtimoiy tuzilma, deb hisoblaydi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil emas, balki kapitalistik tuzumning bir qismi. Bu jamiyat burjuaziya manfaatlarini himoya qiladi, kambag'al (proletarlar) esa ekspluatatsiya qilinadi. Erkin bozor va mulkiy munosabatlar fuqarolik jamiyatini nomutanosib, tengsiz tizimga aylantiradi. Faylasufning fikricha, fuqarolik jamiyatidagi asosiy muammo – sinfiy ziddiyatlar. Burjuaziya – ishlab chiqarish vositalarini egallagan hukmron sinf bo'lsa, proletariat – mehnat qiladigan, lekin o'z mehnatining haqqini to'liq olmaydigan kambag'allar qatlamidir. Gegeldan farqli ravishda, Marks davlatni fuqarolik jamiyatidan yuqori turmaydi, balki u burjuaziya manfaatlariga xizmat qiladigan mexanizm, deb hisoblaydi. Davlat faqat burjuaziya hukmronligini saqlab qolish uchun mavjud va uning asosiy vazifasi – proletariatning isyon ko'tarishining oldini olish.

fikrlari hozirgi demokratiya, xalq hokimiyati va ijtimoiy adolat konsepsiyalariga asos bo'lib xizmat qilgan;

Gegelning fuqarolik jamiyati haqidagi nazariyasi davlat, huquq va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatga asoslangan. Uningcha, fuqarolik jamiyati erkin shaxslardan iborat, lekin u davlatsiz anarxiyaga aylanishi mumkin. Shuning uchun davlat qonun ustuvorligi va umumiy manfaatlarini himoya qilishi lozim;

Karl Marks fuqarolik jamiyatini mustaqil va erkin deb emas, balki kapitalizm tizimida hukmron sinf manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizm deb ko'rgan. Unga ko'ra, bu jamiyatda sinfiy qarama-qarshilik mavjud va u faqat proletariat inqilobi orqali yo'q qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. 2023-yil 23 dekabrda "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy" nomli ma'ruzasi - «Xalq so'zi» gazetasi № 271 23.12.2023 –B.1
2. Соколов В. В.. «Левифан...» // Новая философская энциклопедия: В 4 т. / Ин-т философии РАН,- М.: Мысл, 2010. - Т. ИИ | Е-М. - С. [377]
3. Локк Дж. Два трактата о правлении. Соч.: в 3 т. М., 1988. Т. 3. 312 с.
4. Монтеске П.Л. О духе законов. Избр. произв. М., 1955. 570 с.
5. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре. Избр. соч. М., 1964. 416 с.
6. Гегел Г.В.Ф. Соч. в 14 т. -М., 1999 . Т. 7. 213 с.
7. Гегел. Г.В. Философия права. - М.: Мир книги, 2007. - 464 с. - (Великие мыслители). - ИСБН 978-5-486-01240-2.
8. Маркс К., Энгелс Ф. Соч. Т. 1. -С. 400 – 402.